

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607554>

## INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Nafasov Doniyor Shernafasovich**

Pedagogika kafedrası mudiri pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**Sultanova Nodira Rashid qizi**

Urganvh davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ta'lim tizimining yangi innovatsion texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarini olib borilishi, o'qituvchi va talaba shaxsiga dars jarayonida qo'yiladigan talablar haqida tushunchalarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'z:** *zamonaviy texnologiyalar, boshqaruvchilik, Innovatsion texnologiya, ijodiy yondashish, dars, texnologiya, predmet, natija,*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shuki hozirgi vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'qituvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, va xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq, Pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zgaruvchan o'quv reja va dasturlarini joriy etish, talabalarning qiziqishlari hamda kadrlar iste'molchilarining talablarini inobatga olgan holda maxsus ta'lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqishda<sup>1</sup>, Oliy ta'lim muassasalari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlar, va innovatsion texnologiyalarning o'рни va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innavation) -yangilik kiritish, degan ma'noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabaning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lb, ularga quyidagilar kiradi:

-O'qituvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka , mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'qituvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'qituvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

-Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi;

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, va amaliyotchilarning fikricha, pedogogik texnologiya bu faqat


---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>

axborot texnologiyasi bilan bog‘liq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.<sup>1</sup>

Fikrimcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga, hamkorlikda erishishlari uchun, tanlangan texnologiyalarga bog‘liq, ya’ni o‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasini, to‘g‘ri tashkil etilsa, o‘qituvchi ham talaba ham ijobiy natijaga erisha oladi. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsa, jarayonni to‘g‘ri tahlil qilib, o‘zlari mustaqil xulosa qila olsalar, va bir-birlariga, baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning talaba va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bera olsa, fikrimcha anashu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu va o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ushbu fikrni chizma xolatida quyidagicha ifodalash mumkin:



**1-chizma**

Xulosa qiladigan bo‘lsak maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishda o‘qituvchi, va talabaning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mavzu, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

<sup>1</sup> Axmedov Q.M, Ismoilov O.A, Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muamolari.

O'qituvchi va talabaning samarali natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ixtiyoriy, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi shu jarayonga qaratilgan, bunda o'qituvchi talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tamoni, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o'qituvchi talabani ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning **texnologik xaritasi** xar bir mavzu, xar bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'qituvchi va talabalarning imkoniyati hamda ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi(2-chizma).

## 2-chizma

| <b>Texnologik xarita</b>                       |  |
|--|--|
| Mavzu  |  |
| Maqsad va vazifalar                            | Talabalarga mavzuning mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish.   |
| O'quv jarayonining mazmuni                     |  |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | Metod: , Forma: , Vosita: , Usul:<br>Nazorat: , Baxolash:  |
| Kutiladigan natijalar                          | O'qituvchining erishgan yutug'i.<br>O'quvchining mavzu yuzasidan olgan bilimi.   |
| Kelgusi rejalar                                | O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish maxoratini oshirish.<br>O'quvchi talaba: Mustaqil fikr yuritishni o'rganish. |

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga faning, predmetini yaxlit holda tasavvur qilib yondashishga, tushunishiga, yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa texnologik xaritani o'qituvchi talabanning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. O'qitish jarayonida o'quvchi talabalarga shaxs sifatida qarashi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqoza etadi. Ular juda xilma-xildir, va ular mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>
2. Axmedov Q.M, Ismoilov O.A, Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muamolari.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (metodik qo'llanma).-T.: 2004.